

Date: 13thJanuary-2025

**TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND
ETISHDA AYOLLARNING O'RNI**



Bakhit Mambetnazarov

Nukus innovatsion instituti “Dasturiy injiniring va raqamlı iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti (PhD)

Sherniyazova Matlyuba Niyazbek qizi

Nukus innovatsion instituti “Innovatsion texnologiyalar va biznes” fakulteti “Iqtisodiyot” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi haqida so‘z yuritiladi. Unda Qoraqalpog‘istonda xotin-qizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar, ularga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, shuningdek, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar jarayonida ayollarning ta’lim olishlari uchun tashkil etilgan qulayliklar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlarni rag‘batlantirish, gender tenglik, ma’naviy va madaniy rivojlanish, ayollar huquqlari himoyasi, islohotlar jarayoni, ayollar bandligini oshirish, ilmiy faoliyatdagi ayollar.

Ayol — jamiyatning tarbiyachisi va uning taraqqiyotida asosiy o‘rin egallovchi shaxsdir. U o‘z mehr-muruvvati va samimiy muhabbati bilan kelajak avlodni tarbiyalaydi va kamolga yetkazadi. Ayolning baxtli hayoti butun jamiyatning farovonligi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Xotin-qizlarni qadrlash va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish yurtning buguni va kelajagini yuksaklikka yetaklaydi.

Tarixdan ayonki, ma’rifatparvar jadidlar harakati xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini to‘laqonli qabul qilmasdan, oilani mustahkamlamasdan va yosh avlodni tarbiyalash masalasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymasdan turib, jamiyatni isloh qilish va taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emasligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, millatning taqdiri ayollar va oilaning ahvoliga chambarchas bog‘liq bo‘lib, xotin-qizlar jamiyatning madaniy-ma’naviy rivojlanishida asosiy tayanch va vositachi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli, jadidlar bu g‘oyalarni amalga oshirish uchun faol kurash olib borganlar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda ham davlatimiz tomonidan ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda o‘z munosib o‘rnini topish va qadr-qimmatini yuksaltirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollarni “nozik xilqat” deb ta’riflash bejiz emas, chunki ular jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababdan, mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularga e’tibor ko‘rsatish doimo ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv davrida har qanday sharoitda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonida xotin-qizlarning o‘rni va roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Date: 13thJanuary-2025

Shuning uchun ham olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surishlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Inson qadr-qimmatini ulug'lash esa, avvalo, ayollarga bo'lgan ehtiromdan boshlanadi. Mo'tabar onalarimiz va munis opa-singillarimizni e'zozlash orqali bu qadriyatlar hayotga tatbiq etiladi, bu esa jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim mezonidir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, davlat boshqaruvi hamda jamiyatning barcha sohalarida ularning rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli yangiliklar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar gender tenglikni ta'minlash borasidagi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Davlat boshqaruvida ayollar ishtirokini yanada kuchaytirish maqsadida 15 mingdan ortiq xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasining shakllantirilgani bunga yaqqol misoldir. Bu tashabbus xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlarini egallashi va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixida ayollarning parlamentdagi o'rni yuksalib, ularning soni 32 foizga yetdi. Shuningdek, mamlakatda rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar soni 30 foizdan oshdi. Hozirda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jamiyatdagi o'rnni mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayollar, jumladan, ilm-fan va madaniyat sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar va ziyolilarning mehnati e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini ish bilan band qilish borasidagi asosiy muammolar bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu muammolarni tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi:

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammolar

Moliyaviy resurslarga kirish cheklovleri

Yuridik va huquqiy me'yorlar
murakkabligi

Aholini ish bilan band qilish yo'llaridagi asosiy muammolar

Ish o'rnlari yetishmasligi

Mehnat bozorida malaka
nomutanisosibligi

Yoshlar va ayollar uchun ish imkoniyatlari cheklanganligi

Yoshlar bandligi

Ayollar bandligi

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammolar, O'zbekiston Respublikasida Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida xotin-qizlarni davlat tomonidan

Date: 13thJanuary-2025



qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional mexanizmlarining yaratilishi bilan bog'liq. Davlatning bu boradagi siyosati xotin-qizlar, yoshlar va nogironlar kabi ehtiyojmand qatlamlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiy o'sish, bandlik va ayollar hamda kambag'allikni qisqartirish o'rtaida bevosita bog'liqlik mavjud.

Shunday qilib, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar xotin-qizlarni ijtimoiy va iqtisodiy hayotga kengroq jalg qilishga qaratilgan bo'lib, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, 2022-yil 18-iyulda Prezidentimiz "Oliy, o'rtal maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror asosida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab, xotin-qizlarga oliy, o'rtal maxsus va professional ta'lim muassasalarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida to'lov-kontrakt asosida o'qish imkoniyatlari yaratildi. Ta'lim kreditlarini davlat budgetidan imtiyozli shartlarda ajratishning yangi tizimi joriy etilmoqda, bu esa xotin-qizlarga o'z bilimlarini oshirishda katta yordam beradi.

Shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. O'zbekiston xalqaro shartnomalarga qo'shilib, xotin-qizlarni har qanday kamsitilishdan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qilmoqda. Mamlakatda "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" kabi mexanizmlar orqali ehtiyojmand aholi qatlamlari bilan maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Shunday qilib, xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash, jamiyatda gender tengligini mustahkamlash, shuningdek, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun mamlakatimizda turli muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar O'zbekistonni yanada rivojlanayotgan va adolatli jamiyatga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Supiyevna B. M. O'zbekistondagi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini ish bilan band etish yo'llari //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 08. – C. 78-84.
2. Erejepova S., Shuakbaeva J. Ja 'miyatimizda xotin-qizlar bandligining shakllanish yo'nalishi //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 88-90.
1. N.Jo'rayeva. O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat, (o'quv qo'llanma), T.-2013, - 268 b.
2. S.Djasanova. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi, (monografiya). T. "Tafakkur qanoti" -2014 96 b.
3. O'zbekiston ayollari, (albom). Tahrir hayati: T.Norboyeva va boshqalar. T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" – 2019, 224 b.
4. Lex.uz
5. gov.uz